

Tumanimizdagi "Do'stlik" istirohat bog'i qayta ta'mirlanadi



Tumanimizdagi "Do'stlik" istirohat bog'i qayta ta'mirlanadi

Aytish lozimki, So'x tumanida davlatimiz rahbari e'tibori asosida keng ko'lamli obodonlashtirish, bunyodkorlik, qurilish va ta'mirlash ishlari olib borildi. "Do'stlik" istirohat bog'i ham aynan Prezidentimiz e'tibori va tashbbusi bilan barpo etilgan dam olish maskani hisoblanadi.

Biroq, ayrim ma'lum sabablarga ko'ra, ancha muddat mazkur istirohat bog'i e'tibordan chetda qolib ketdi. Aniqrog'i, faoliyat olib bormadi va nomiga munosib bo'lmadi.

Tuman "Do'stlik" istirohat bog'ida bo'lgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev bog'ni barpo etgan tadbirkor va mutasaddi idoralar vakillari bilan uchrashib, istirohat bog'ini talab darajasiga keltirish va qayta ta'mirlash yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-07-07 17:53:40